

## “KOMPYUTER TIZIMLARI VA TARMOQLARI” FANIDAN AMALIY VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISHDA VIRTUAL CISCO PACKET TRACER DASTURIDAN FOYDALANISH

**Maxmatqulov G‘olibjon Xolmuminovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, i.f.f.d. (PhD)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kompyuter tarmoqlarini boshlang‘ich ta’limdan oliv ta’limgacha virtual hayotiy ob’ektlarni modellashtirishda eng sodda chiplardan tortib butun boshli murakkab aloqa tizimlarigacha virtual prototiplarini yaratish mumkinli hamda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda cisco packet tracer dasturining imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kompyuter, tizim, virtual, modellashtirish, cisco packet tracer, simulyatorlar, dasturlar, virtual, zamonaviy texnologiya, ta’lim, loyihalash, kompyuter tarmoqlari.

### KIRISH

Hozirgi kunda kompyuterning yaratilishi jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar uning bir qismi bo‘lgani informatika va axborot texnologiyalari sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida o‘zgarib, boyib bormoqda. Bu o‘zgarishlar turli soha mutaxassislari oladigan bilimlar, axborot texnologiyalarni qo‘llash bilan tobora bog‘lanib bormoqda. Hozirgi vaqtda ixtiyoriy tashkilot kompyuter tarmog‘iga ega. Bunday tizimlarning murakkabligi, jixozlanganlik darajasi, yechadigan masalalar sinfi, boshqarish holatlari va hududiy bo‘linganligi tashkilot foydalanuvchilarining sohasiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq, bunday tizimlarning asosida axborotni yig‘ish, ishlov berish, saqlash, aks ettirish va uzatish imkonini beruvchi dasturiy-apparat vositalar majmuasidan iborat axborot texnologiyalari yotadi. Bunday turdagи avtomatlashtirilgan dasturiy-apparat vositalarning asosini hisoblash tizimlari tashkil qiladi. Bugungi kunda ta’lim sohasida kompyuter tarmoqlarini loyihalash va modellashtirish uchun ko‘pgina mablag‘lar talab qiladi. Shuning uchun virtual dasturlardan foydalanish maqsadga muofiqdir.

### ASOSIY QISM

Bilim olish jarayonida virtual dasturlardan foydalanish ta’lim olish samaradorligini oshirishning qulay usullaridan hisoblanadi. Shuning uchun o‘qib o‘rganish mobaynida virtual dasturlardan keng foydalaniladi. Virtual dasturlar va

simulyatorlar o'quv jarayonining qarib barcha bosqichlarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab oliv o'quv yurtlarigacha, oddiy til o'rganishdan to ishlab chiqarish sohalarigacha qo'llanilishi mumkin. Virtual dasturlar va simulyatorlaridan asosan ikki yo'nalishda foydalanish mumkin: haqiqiy ob'ektlarni modellashtirish hamda ushbu modellarni rivojlanirish. Hayotiy ob'ektlarni modellashtirishda eng sodda chiplardan tortib butun boshli murakkab aloqa tizimlarigacha virtual prototiplarini yaratish mumkin. Talabalar ushbu virtual modellarni o'rganish jarayonida ularning ishlash prinsipi va usullarini yanada takomillashtirishlari ham mumkin bo'ladi. Multimedia aloqa tarmoqlari fanidan amaliy mashg'ulotlarni simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon alternativ va masofaviy o'qitishni tashkil etishda qulay ekanligidadir. Ma'lumki, telekommunikatsiya texnologiyalari sohasini o'qitish jarayonida asosan telekommunikatsiya uskunalarini ishlash tamoyillarini o'rgatiladi, shu sababli aloqa tarmog'i elementlarini sozlash hamda tadqiq qilishda bahosi qimmat qurilmalarni ishlatishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday texnologiyalar bilan ta'lim sohasini to'liq ta'minlash katta xarajat va ularni ishlatishda ma'lum muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday muammolarni hal etishning eng yaxshi usullaridan biri bu simulyatorlardan foydalanishdir. Virtual dasturlar (simulyatorlar) real tarmoqda qo'llaniluvchi qurilmalarning ishlash tamoyillarini virtual holatda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejalishiga va ularga bo'lgan ehtiyojni ham kamaytiradi. Simulyatorlarning deyarli hech qanday moliyaviy mablag'lar talab qilmasligi, ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Undan tashqari amaliy yoki laboratoriya mashg'ulotlarni masofaviy o'qitish jarayonida foydalanish uchun ham qulay hisoblanadi. Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanlidir. Ba'zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan, telekommunikatsiya qurilmalarining yuqori kuchlanishdagi toklarda ishlashi, yetarlicha tajribaga ega bo'limgan talabalarning qurilmalarni o'rganish jarayonida hayotga xavf tug'dirishi mumkin.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda virtual holatda o'rganishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim olish jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy ko'nikmalarning shakillantiradi. Bundan tashqari simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o'z xissalarini qo'shishlari mumkin. Albatta har qanday dasturiy mahsulotning kamchiligi bo'lgani kabi simulyatorlardan foydalanishga nisbatan ham qarshi fikrlar mavjud. Ulardan eng birinchisi simulyatorlarning haqiqiy ob'yekt va jarayonlarni to'la-to'kis ifoda eta olmasliklaridir.

Bu simulyatorlar yordamida olingan natijalar bilan hayotiy natijalar o'rtaida tafovutlar paydo bo'lishi. Shunga qaramasdan yuqorida ko'rsatilgan simulyatorlardan foydalanishning salbiy tomonlari ijobiy tomonlariga nisbatan ancha kam hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Shuning uchun ular simulyatorlardan foydalanishning qandaydir ma'noda cheklanishiga asosiy sabab bo'la olmaydi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya, to'g'rirog'i, ta'lim texnologiyalarida qo'llaniladigan usullarning barchasi ham ta'lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida ko'nikmaga ega bo'lishlariga qaratilgan. Hamma gap qo'yilgan maqsadni qay darajada amalga oshirishdadir. Kompyuter tizimlari va tarmoqlari fani texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neft-kimyo va oziq-ovqat sanoati) ta'lim yo'naliشining ikkinchi bosqich talabalariga o'tiladi. Amaliy mashg'ulotlar asosan tarmoq va tarmoq qurilmalarining asosiy parametrlarini hisoblash va tarmoq qurilmalarini sozlash, tarmoqlarini loyihalash va tarmoqni tadqiq qilishda uni modellashtirish jarayonlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda virtual simulyatorlardan foydalanish eng qulay usullaardan biri hisoblanadi. Bu bizga qimmat turuvchi qurilmalar sozlamalarini o'rganish, katta ko'lamdag'i tarmoqlarni loyihalashtirish va ular ustida tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.



**1-rasm. Ovozli habar yuborish jarayoni.**

Virtual tarmoqlar va simulyatsiya: Packet Tracer, virtual tarmoqlarni yaratish va ularda sinashni osonlashtiradi. Bu, sizning tarmog'ingizning qanday ishlashi va qanday yordam berishi kerakligini o'rganish imkonini beradi. Siz kompyuterlarni va tarmoq vositalarini ishga tushirishingiz, ularga ma'lumotlar almashishini ko'rishingiz va tarmoq protokollarini o'rganish uchun xilma-xilliklar sinab ko'rishingiz mumkin. Tarmoq sinash va tekshirish: Packet Tracer orqali siz o'z tarmog'ingizni simulyatsiya qilish, xususiyatlarni tekshirish va sinash imkoniyatiga

egasiz. Sizning tarmoqingizni ishga tushiring, u yerda ishlashni tekshiring, bog'lanishlarni sinab ko'ring va muammolar yuzaga kelganda ularni tuzating. O'quvchilar va o'rgatuvchilar uchun: Cisco, Packet Tracer uchun ko'p qo'llanmalar, darsliklar va o'rgatuvchilar tayyorlagan. Ushbu materiallar orqali siz dasturdan maksimal foydalanishingiz va tarmoq sozlamalarini o'rganishingiz mumkin. Ko'p-platformali dastur: Packet Tracer, Windows, macOS va Linux platformalarida ishlaydi, shuningdek mobil qurilmalar uchun iOS va Android versiyalari ham mavjud. Bu sizga har qanday operatsion tizimga ega bo'lgan qurilmada dasturdan foydalanish imkonini beradi. Packet Tracer dasturini o'rganish uchun, sizga qo'llanmalar, o'quv videolar va amaliy mashqlar kabi resurslar taqdim etiladi. Internet manbalari va resurslar orqali siz tarmoq sozlamalarini o'rganish va amalga oshirishda tajribaga ega bo'lishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkun kompyuter tarmoqlarini o'rganishda virtual laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni yaratishda Cisco Packet Tracer dasturi imkoniyatlarining kengligi, dasturdan foydalanishning soddaligi va qo'shimcha talabalar mustaqil o'rganish ushun o'quv ma'nbarining ko'pligi bilan qo'lay hisoblanadi. Shuningdek yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan imkoniyatlar va talabalarning masofaviy ta'lim olishida simulyator dasturlarini qo'llash ahamiyatliligi bilan ham ushbu dasturdan foydalanish o'z samarasini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Олифер В.Г., Олифер Н.А. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. Учебник. –3-е издание. СПб. Питер. 2006 г.
2. Kaxxarov A.A., Avazov Yu.Sh., Ruziyev (J.A. Kompyuter tizimlari va tarmoqlari. -T.: Fan va texnologiya, 2019. -450 b.
3. Ochilov M.A. Kompyuter tizimlari va tarmoqlari o'quv qo'llanma.T.: –Intellekt, 2022. -220 b.
4. «Инфокоммуникационные системы и сети. Вычислительные системы. Сети и телекоммуникации» 2015 г;
5. G 'X.Maxmatqulov.Kompas 3d dasturidan foydalanib uch o'lchovli modellarni yaratish. <https://sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/8601>
6. Maxmatqulov, G'. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 381–386. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss4/a610](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a610)
7. Maxmatqulov G'.X. Savdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati "Biznes-Ekspert", 2021., 5 (161)-son 36-41 b.
8. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/73254>